

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2020.I.16.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

VAFOYEVA DILAFRUZ IKROMOVNA

**TIKUV-TRIKOTAJ KORXONALARINI BOSHQARISHDA
RAQOBAT STRATEGIYALARIDAN FOYDALANISHNI
TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.13 – Menejment

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2023

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по экономическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of Doctor of Philosophy (PhD)
in economics sciences**

Vafoyeva Dilafruz Ikramovna

Tikuv-trikotaj korxonalarini boshqarishda raqobat strategiyalaridan
foydalanishni takomillashtirish..... 3

Вафоева Дилафруз Икромовна

Совершенствование использования конкурентных стратегий в управле-
нии швейно-трикотажными предприятиями 27

Vafoeva Dilafruz Ikramovna

Improving the use of competitive strategies in the management of sewing and
knitting enterprises 53

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ
List of publications 57

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2020.I.16.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

VAFOYEVA DILAFRUZ IKROMOVNA

**TIKUV-TRIKOTAJ KORXONALARINI BOSHQARISHDA
RAQOBAT STRATEGIYALARIDAN FOYDALANISHNI
TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.13 – Menejment

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2023

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.4.PhD/Iqt2638 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus va ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.tsue.uz) va «Ziyonet» axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: Yusupova Dildora Turadjanovna
iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Rasmiy opponentlar: Suyunov Dilmurod Xolmurodovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Qosimov Saidaxror Magrupovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot: Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2020.I.16.02 raqamli ilmiy kengashning 2023 yil «17» 10 soat 16:00dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49. Tel.: (99871) 239-01-49; faks: (99871) 239-41-23; e-mail: info@tsue.uz

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (____ raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49 uy. Tel.: (99871) 239 - 28 - 75; faks: (99871) 239-28-75; e-mail: info@tsue.uz

Dissertatsiya avtoreferati 2023 yil «6» 10 kuni tarqatildi.
(2023 yil «5» 10 dagi 11 -raqamli reestr bayonnomasi).



G.Q. Abdurahmonova
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, i.f.d., professor

O.Dj. Djurabayev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, PhD

R.X. Karlibayeva
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi i.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon iqtisodiyotidagi globallashuv jarayonida to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish markazi Yevropa va AQShdan rivojlanayotgan Janubiy Amerika, Janubi-sharqiy hamda Markaziy Osiyo mintaqalariga ko‘chdi. Bu esa rivojlanayotgan davlatlar qatori mamlakatimizda ham iqtisodiy jihatdan muhim tarmoqlardan hisoblangan trikotaj, ipakchilik, tikuvchilik tarmoqlarini modernizatsiyalash, eksportbop, yuqori sifatli to‘qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish korxonalari faoliyatini tashkil etishda biznes jarayonlarini boshqarish, xususan, boshqaruvga nisbatan jarayonli yondashuvga asoslanish, raqobatbardosh mahsulot turlarini ishlab chiqarishni tashkil etishga e‘tibor qaratishni taqozo etadi. Jahon bozorida raqobat tobora keskinlashib borayotgan hozirgi davrda korxonalarni rekonstruksiya qilmay, zamonaviy ilg‘or texnologiya bilan jihozlamay, ishlab chiqarilayotgan mahsulot turlarini yangilamay turib, ularning iqtisodiy va moliyaviy barqarorligini ta‘minlash mumkin emas. Ishlab chiqarishni tashkil etishning uzluksiz shakllarini joriy etish mamlakatimiz to‘qimachilik sanoatini rivojlantirish hamda eksportbop sifatli mahsulotlar ishlab chiqarish bo‘yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarning eng muhim sharti va manbai bo‘lmog‘i kerak. To‘qimachilik ishlab chiqarishining o‘z xomashyo bazasiga ega ekanligi paxta xomashyosiga qayta ishlov beruvchi O‘zbekiston to‘qimachilik sanoatining jadal sur‘atlar bilan rivojlanishi uchun asos bo‘lmog‘i kerak.

O‘zbekiston to‘qimachilik sanoatini rivojlantirish, uning raqobatbardoshligini ta‘minlash, tarmoq eksport salohiyatini oshirish borasida hukumatimiz tomonidan bir qator huquqiy-me‘yoriy hujjatlar qabul qilingan bo‘lishiga qaramay, muammolar saqlanib qolmoqda. Korxonalarni rekonstruksiya qilish, zamonaviy ilg‘or texnologiya bilan jihozlash, mahsulot assortimentlarini kengaytirish raqobatbardoshlikning asosiy omillari hisoblanadi. Korxonalarning bozor iqtisodiyoti sharoitiga moslashuvi, yangi texnologiyalarni qo‘llashi, yuqori malakali kadrlarni tayyorlashi, dunyo bozoriga mahsulotlarni olib chiqishi uzoq muddatga mo‘ljallangan, ilmiy asoslangan rivojlanish strategiyasini ishlab chiqishni talab qilmoqda. O‘z navbatida, bunday strategiyani ishlab chiqishning ilmiy-uslubiy asoslarini yaratish, korxonalarning kuchli va zaif tomonlarini chuqurroq tahlil qilish, mavjud imkoniyatlardan samarali foydalanish bo‘yicha aniq amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqishni talab etadi. Shu sababli iqtisodiyotni modernizatsiyalash va tarkibiy o‘zgartirishlarning ustuvor yo‘nalishlaridan bo‘lgan tikuv-trikotaj korxonalarini tikuv-trikotaj buyumlari xalqaro bozorlarida raqobat strategiyalarini ishlab chiqish bugungi kunning dolzarb muammolaridan biri bo‘lib qolmoqda.

Dissertatsiya tadqiqoti O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 14-dekabrda «To‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PF-5285-sonli, 2018-yil 22-yanvardagi «Faol tadbirkorlik, innovatsion g‘oyalar va texnologiyalarni qo‘llab-quvvatlash yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida »gi PF-5308-sonli, 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son « O‘zbekiston – 2030» strategiyasi to‘g‘risidagi farmonlari, 2016-yil 21-dekabrda «2017-2019-yillarda to‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari dasturi to‘g‘risida »gi qarori, 2019-yil 12-fevraldagi PQ-4186-sonli

«To‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini isloh qilishni yanada chuqurlashtirish va uning eksport salohiyatini kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarori, 2019-yil 16-sentyabrdagi PQ-4453-sonli «Yengil sanoatni yanada rivojlantirish va tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni rag‘batlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarori, 2020-yil 5-maydagi PQ-5989-sonli «To‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini qo‘llab-quvvatlashga doir kechiktirib bo‘lmaydigan chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi qarori va mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. «Demokratik va huquqiy jamiyatni ma‘naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish» ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Korxonalar menejmentining ajralmas tarkibiy qismi bo‘lgan strategik boshqaruv raqobat muhiti sharoitida bozorda o‘z mavqeyiga ega bo‘lishga intilayotgan korxonalar uchun zaruriy shartlardan biri hisoblanadi.

Rivojlangan xorijiy davlatlarda strategik boshqaruvning nazariy va metodologik asoslarini I.Ansoff, M.Porter, Dj.Kuinn, G.Minsberg, R.Rumelt, S.Goshal singari ko‘zga ko‘ringan xorijlik olimlarning asarlarida tadqiq etilgan hamda strategik boshqaruv konsepsiyasi rivojlantirilgan¹.

Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi mamlakatlari olimlari A.M.Aronov, O.A.Bogomolov, O.S.Vixanskiy, V.A.Goremkin, V.S.Yefremov, A.T.Zub, N.O.Kruglova, M.I.Kruglov, N.N.Trenyov, R.A.Fatxutdinov singari rossiyalik tadqiqotchi olimlarning asarlarida ham strategik boshqaruvning nazariy va uslubiy masalalari tadqiq qilingan².

O‘zbekiston milliy iqtisodiyotining raqobatbardoshligini oshirish, strategik boshqaruvning nazariy va amaliy jihatlarini takomillashtirish, shuningdek yengil sanoatning yetakchi tarmoqlaridan bo‘lgan to‘qimachilik sanoati korxonalarini rivojlantirishning nazariy va uslubiy asoslari N.Q.Yo‘ldoshev, B.Yu.Xodiyev, A.Sh.Bekmurodov, M.R.Boltabaev, N.M.Maxmudov, D.S.Nasirxodjayeva, U.A.Shodmonova, G.M.Ostonaqulova, D.A.Karimova, S.N.Yuldashev, K.K.Xasandjanov, R.A.Turapov, Yusupov S.Sh. va boshqa bir qator olimlarning ishlarida o‘z aksini topgan³.

¹ Ансофф И. Стратегическое управление / Пер. с англ. -М.: Экономика, 2002.; Минцберг Г., Куинн Дж.Б., Гошал С. Стратегический процесс / Пер. с англ. -СПб.: Питер, 2001. -688 с.; Портер М. Конкуренция: Пер. с англ. О.Л.Пеляевского. -Исправ. изд. -М.: Вильямс, 2005. -602 с.; Румельт Р. Оценка бизнес-стратегии / Минцберг Г., Куинн Дж.Б., Гошал С. Стратегический процесс. -СПб.: Питер, 2001. -130 с.

² Аронов А.М. Ключевые факторы успеха стратегического планирования: Словарь-справочник. -СПб.: Лениздат, 2000. -95 с.; Виханский О.С. Стратегическое управление. 2-е изд. перераб. и доп. -М.: Экономист, 2005. -296 с.; Горемыкин В.А., Богомоллов О.А. Экономическая стратегия предприятия. -М.: Финин, Ралант, 2001. -507 с.; Ефремов В.С. Стратегическое планирование в бизнес-системах. -М.: Финпресс, 2001.; Зуб А.Т. Стратегический менеджмент: Теория и практика. -М.: ИНФРА-М, 2002. -308 с.; Круглова Н.О., Круглов М.И. Стратегический менеджмент: Учебник. -М.: РДЛ, 2003. -462 с.; Тренёв Н.Н. Стратегическое управление. -М.: Приор, 2002. -288 с.; Фатхутдинов Р.А. Производственный менеджмент: Учебник. 6-е изд. -СПб.: Питер, 2008. -496 с.

³ Бекмуродов А.Ш., Янг Сон Бе. Стратегия развития текстильной промышленности Узбекистана: Кластерный подход. Монография. -Т.: ТГЭУ, 2006. -112 с.; Boltabayev M.R. O‘zbekiston Respublikasi to‘qimachilik sanoati

Bu ilmiy ishlarda to'qimachilik korxonalarining rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqish muammolari raqobat muhitini e'tiborga olgan holda, yetarli darajada yoritilmagan. Korxonalarining rivojlanish strategiyasini hozirgi zamon talablaridan kelib chiqib ilmiy asoslab berish zarurati mazkur tadqiqot mavzusi tanlanishiga sabab bo'ldi.

Tadqiqot mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya ishi Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining ilmiy tadqiqot ishlari rejasi doirasida amalga oshirilgan.

Tadqiqotning maqsadi o'zgaruvchan bozor sharoitida tikuv-trikotaj buyumlari xalqaro bozorlarida O'zbekiston korxonalarini raqobat strategiyalarini ishlab chiqish bo'yicha ilmiy-uslubiy va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

xalqaro bozorlarni rivojlantirishning zamonaviy tendensiyalarini tadqiq etish;

tikuv-trikotaj buyumlari bozorini rivojlantirish omillarini asoslash;

tikuv-trikotaj buyumlari milliy bozorlari raqobatbardoshligini baholash uslubiyotini tadqiq etish;

tikuv-trikotaj sanoati korxonalarini modernizatsiyalash, eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqarishini rivojlantirish imkoniyatlarini baholash;

O'zbekiston tikuv-trikotaj korxonalarining kuchli va zaif jihatlarini tahlil qilish;

tikuv-trikotaj korxonalarini raqobatchilik salohiyatini baholash;

O'zbekiston tikuv-trikotaj korxonalarining xalqaro bozorlardagi o'rnini mustahkamlash yo'llari bo'yicha tavsiyalar berish;

O'zbekiston to'qimachilik sanoati korxonalarining xalqaro bozorlardagi raqobatchilik strategiyasi bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqish;

tikuv-trikotaj korxonalarini raqobatdoshlik salohiyatini oshirish istiqbollari bo'yicha takliflar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti «O'zto'qimachilik sanoati» uyushmasi tarkibidagi tikuv-trikotaj korxonalarini xususan, «BEST COLOR TEXTILE» MChJ, «BETLIS TEXTILE» MChJ, «FULL COTON» MChJ hisoblanadi.

Tadqiqotning predmetini o'zgaruvchan bozor talablari sharoitida tikuv-trikotaj buyumlari xalqaro bozorlarida O'zbekiston korxonalarini raqobat strategiyalarini ishlab chiqishda yuzaga keluvchi iqtisodiy munosabatlar tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida matematik modellashtirish, iqtisodiy tahlil, tizimli va qiyosiy tahlil, boshqaruv qarorini qabul qilishga yondashuv, statistik guruhlash, taqqoslash, tasniflash, SWOT-tahlili usullaridan keng foydalanilgan.

eksport imkoniyatlarini rivojlantirishda marketing strategiyasi: Iqtisod fanlari doktori diss. avtoref. -T.: TDIU, 2005. - 40 b.; Yo'ldoshev N.Q., Boltabayev M.R., Rixsimboyev O.K., G'aniyev B.O. Strategik menejment: O'quv qo'llanma. - T.: TD, 2003, -102 b.; Shodmonova U.A. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida yengil sanoatning barqaror rivojlanish xususiyatlari: Iqtisod fanlari nomzodi. dis. Ijtimoiy-iqtisodiy tadqiqotlar markazi. -T.: 2006.-149b.; Ostonaqulova G.M. Ipakchilik tarmog'ini rivojlanishining marketing strategiyasi : Iqtisod fanlari nomzodi... dis. -T.: TDIU, 2010. -147 b.; Насырходжаева Д.С. Формирование стратегии развития промышленных предприятий на отраслевых рынках: Автореф. дисс. докт. экон. наук, -T.: АН РУз Институт экономики, 2011. -47 с.; Yuldashev S.N. Aksiyadorlik jamiyatlarida davlat mulkini boshqarish va ishlab chiqarish samaradorligini oshirish yo'llari : Iqtisod fanlari nomzodi dis. -T.: TDIU, 2010. -167 b.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

uslubiy yondashuvga ko'ra tikuv-trikotaj buyumlari xalqaro bozorlaridagi raqobat strategiyalarining nazariy-uslubiy asoslariga turli yondashuvlarni umumlashtirish orqali global miqyosda samarali raqobat qilish uchun kompaniyalar tomonidan barqaror rentabellikni ta'minlovchi omillar majmuasi asoslangan;

matoni bo'yash va pardozlash texnologik jarayonlarining raqobat ustunligini hisobga olgan holda tikuvchilik sanoati uchun jahon andozalari talablariga muvofiq keluvchi sifatli sintetik, yarim jun tolalar, mahalliy kimyoviy moddalar, bo'yoqlar va furnitura ishlab chiqaruvchi korxonalarini tashkil etish orqali yopiq zanjir yaratish taklifi asoslangan;

ichki va tashqi bozor uchun sifatli va raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarish imkonini beruvchi import tavsifidagi butlovchi materiallar, to'qimachilik va yengil sanoat korxonalarining dastgohlari uchun ehtiyot qismlarga nisbatan belgilanuvchi bojxona to'lovlarining to'qimachilik mahsulotlari bozori konyukturasiga qisqa muddatli moslashuvchanlik darajasini oshirish orqali raqobatbardoshlikka ta'sir ko'rsatish taklifi asoslangan;

O'zbekiston Respublikasi to'qimachilik sanoati tarmog'idagi korxonalar rivojlanishi dinamikasi ma'lumotlari asosida tuzilgan trend modellari yordamida 2030-yilga qadar prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

korxonaning bozor sharoitlariga moslashish jarayoni asoslangan;

tikuv-trikotaj buyumlari raqobatbardoshligiga ta'sir etuvchi asosiy omillar asoslangan;

tikuv-trikotaj buyumlarining raqobatbardoshlik darajasini baholash algoritmi tavsiya etilgan;

tadqiqot obyekti qilib qabul qilingan tikuv-trikotaj korxonalarida SWOT – taxlili o'tkazilgan hamda korxonalarining rivojlanish strategiyalari bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan;

mamlakatimizdagi faoliyat yuritayotgan tikuv-trikotaj korxonalarining mahsulot ishlab chiqarish jarayonini boshqarishda milliy hamda xorijiy brend raqobatbardoshligining hozirgi kun holatini tahlil qilish maqsadida so'rovnoma o'tkazilgan hamda ekonometrik tahlil natijalariga asoslanib, takliflar keltirilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi iqtisodchi olimlarning tikuv-trikotaj buyumlari xalqaro bozorlarida O'zbekiston korxonalarini raqobat strategiyalarini ishlab chiqish bo'yicha ilmiy-amaliy yondashuvlarini qiyosiy va tanqidiy tahlil qilish, tadqiqot jarayonida qo'llanilgan uslubiy yondashuv va usullarning asoslanganligi, tadqiqot obyekti sifatida qabul qilingan «BEST COLOR TEXTILE» MChJ, «BETLIS TEXTILE» MChJ, «FULL COTON» MChJ korxonalarida SWOT tahlili o'tkazilganligi, tikuv-trikotaj buyumlari xalqaro bozorlarida O'zbekiston korxonalarini mahsulotlari raqobatbardoshligini baholash maqsadida so'rovnomalar o'tkazilganligi, ma'lumotlarning rasmiy manbalardan olinganligi, shuningdek, taklif va tavsiyalarning amaliyotda joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundaki, tikuv-trikotaj buyumlari bozorini rivojlantirish omillari asoslanishi, tikuv-trikotaj buyumlari milliy bozorlari raqobatbardoshligini baholash uslubiyoti, tikuv-trikotaj sanoati korxonalarini modernizatsiyalash, eksportbop mahsulot ishlab chiqarishni shakllantirish imkoniyatlarining baholanishi, tikuv-trikotaj buyumlari xalqaro bozorlarida O‘zbekiston korxonalarini raqobat strategiyalarini ishlab chiqishning ilmiy-nazariy asoslarini boyitishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati respublikamiz tikuv-trikotaj korxonalarini eksport faoliyatini rivojlantirish strategiyalarini ishlab chiqishda, tikuv-trikotaj sanoatining raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishni tashkil etish ko‘rsatkichlarini asoslashda keng foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Tikuv-trikotaj korxonalarini boshqarishda raqobat strategiyalaridan foydalanishni takomillashtirish bo‘yicha olingan natijalar asosida:

uslubiy yondashuvga ko‘ra tikuv-trikotaj buyumlari xalqaro bozorlaridagi raqobat strategiyalarining nazariy-uslubiy asoslariga turli yondashuvlarni umumlashtirish orqali global miqyosda samarali raqobat qilish uchun kompaniyalar tomonidan barqaror rentabellikni ta‘minlovchi omillar majmuasidan nazariy-uslubiy materiallardan oliy o‘quv yurtlari talabalarini uchun mo‘ljallangan «Biznes ijrosi va strategiya» nomli darslikni tayyorlashda foydalanilgan (Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining 2022-yil 24-oktabrdagi 328-sonli buyrug‘i). Mazkur ilmiy yangilikning amaliyotga joriy etilishi natijasida talabalarda tikuv-trikotaj buyumlari xalqaro bozorlaridagi raqobat strategiyalarining nazariy-uslubiy asoslariga turli yondashuvlarni umumlashtirish orqali global miqyosda samarali raqobat qilish uchun kompaniyalar tomonidan barqaror rentabellikni ta‘minlovchi omillar to‘g‘risidagi bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish imkoni yaratilgan;

matoni bo‘yash va pardoqlash texnologik jarayonlarining raqobat ustunligini hisobga olgan holda tikuvchilik sanoati uchun jahon andozalari talablariga muvofiq keluvchi sifatli sintetik, yarim jun tolalar, mahalliy kimyoviy moddalar, bo‘yoqlar va furniturani ishlab chiqaruvchi korxonalarini tashkil etish orqali yopiq zanjir yaratish taklifi «O‘zto‘qimachilik sanoati» uyushmasining Tayyor mahsulot ishlab chiqarishni kengaytirish boshqarmasi tomonidan korxonalarda mahsulot ishlab chiqarishni rivojlantirish dasturlarini shakllantirishda foydalanilgan («O‘zto‘qimachilik sanoati» uyushmasining 2023-yil 25-maydagi 12-12-03-son ma‘lumotnomasi). Mazkur ilmiy yangilikning amaliyotga joriy etilishi natijasida, jumladan, «BEST COLOR TEXTILE» MChJ korxonasida ishlab chiqarish hajmini 5067 tonnaga oshirishga erishilgan;

ichki va tashqi bozor uchun sifatli va raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarish imkonini beruvchi import tavsifidagi butlovchi materiallar, to‘qimachilik va yengil sanoat korxonalarining dastgohlari uchun ehtiyot qismlarga nisbatan belgilanuvchi bojxona to‘lovlarining to‘qimachilik mahsulotlari bozori konyunkturasiga qisqa muddatli moslashuvchanlik darajasini oshirish orqali raqobatbardoshlikka ta‘sir ko‘rsatish taklifi «O‘zto‘qimachilik sanoati» uyushmasining Tayyor mahsulot ishlab chiqarishni kengaytirish boshqarmasi tomonidan

korxonalarda mahsulot ishlab chiqarishni rivojlantirish dasturlarini shakllantirishda foydalanilgan («O‘zto‘qimachilik sanoat» uyushmasining 2023-yil 25-maydagi 12-12-03-son ma’lumotnomasi). Mazkur ilmiy yangilikning amaliyotga joriy etilishi natijasida 2022-yilda 2021-yilga nisbatan mos ravishda «BEST COLOR TEXTILE» MChJ korxonasida sotilgan mahsulot qiymatini 20 foizga, «BETLIS TEXTILE» MChJ korxonasida 12 foizga oshirish imkoni yaratilgan;

O‘zbekiston Respublikasi to‘qimachilik sanoati tarmog‘idagi korxonalarni rivojlantirish dinamikasi ma’lumotlari asosida tuzilgan trend modellari yordamida 2030-yilga qadar ishlab chiqilgan prognoz ko‘rsatkichlaridan «O‘zto‘qimachilik-sanoat» uyushmasi tomonidan mamlakat to‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini rivojlantirishning istiqbolga mo‘ljallangan dasturlarini ishlab chiqishda foydalanilgan («O‘zto‘qimachilik sanoat» uyushmasining 2023-yil 25-maydagi 12-12-03-son ma’lumotnomasi). Mazkur ilmiy yangilikning amaliyotga joriy etilishi natijasida «O‘zto‘qimachilik sanoat» uyushmasi tarkibidagi korxonalar iqtisodiy faoliyatining istiqboldagi asosiy ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi o‘zaro muvofiqlikni ta’minlash imkoni yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro, 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 11 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan 5 ta maqola (3 tasi respublika, 2 tasi xorijiy jurnallarda), 6 ta ma’ruza tezislari nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi tarkibiy jihatdan kirish, 3 ta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya hajmi 157 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida o‘tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, respublikada fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan hamda tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish, nashr qilingan ishlar va tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**Tikuv-trikotaj korxonalarini boshqarishda xalqaro bozorlardagi raqobat strategiyalarini shakllanishining nazariy-uslubiy asoslari**» deb nomlangan birinchi bobida xalqaro bozorlar rivojlanishining zamonaviy tendensiyalari tadqiq etilib, tikuv-trikotaj buyumlari bozorini rivojlantirish omillarining mohiyati va mazmuni yoritib berilgan. Shuningdek, to‘qimachilik korxonalarini raqobatchilik salohiyatini baholashga nisbatan uslubiy yondashuvlar ishlab chiqilgan.

O‘zbekiston yengil sanoati paxta tolasiga ishlov berish bo‘yicha ko‘p asrlik an‘analarga ega. O‘zbekiston orqali Buyuk Ipak yo‘li o‘tgan bo‘lib, o‘zbek hunarmandlari ishlab chiqargan tovarlar, ayniqsa, shoyi-kimxob, atlas gazlamalar butun dunyoga ma’lum bo‘lgan. Bugungi kunda dunyo bozorida tabiiy tolalardan

ishlab chiqariluvchi mahsulotlarga talab ortib borayotgani hisobga olinsa, O'zbekiston dunyo bozorida faqatgina paxta xomashyosi emas, balki tayyor to'qimachilik va yengil sanoat mahsulotlari yetkazib beruvchi eksportchi sifatida tanilishi uchun ham keng imkoniyatlar mavjudligini ta'kidlash zarur.

To'qimachilik sanoatini rivojlantirishning ustuvor vazifalaridan kelib chiqqan holda, dissertatsiyada tikuv-trikotaj korxonalarini boshqarishda xalqaro bozorlardagi raqobat strategiyalarining nazariy-uslubiy asoslari bo'yicha turli yondashuvlar umumlashtirilib, ma'lum bir yondashuv yoki modelga asoslanish mumkin emasligi, amaliyotda, iqtisodiy jarayonlar amalga oshiriladigan sharoitlar shunchalik turli-tumanki, eski nazariy asoslarni hisobga olmagan, hamda yangi shart-sharoitlarni yaratgan holda rivojlanadiki, tashqi savdo sohasidagi barcha mavjud modellardan foydalanib ham, ko'zlangan maqsadga erishib bo'lmazligi ta'kidlangan.

Fikrimizcha, jahon iqtisodiyotining globallasuvi, bozorlarning tashqi ishlab chiqaruvchilarga ochiq bo'lishi, bularning barchasi bir tomondan, ishlab chiqaruvchilar o'rtasida raqobatni keskin kuchaytiradi va boshqa tomondan, iste'molchilarning istaklari o'zgarishi dinamikasini jadallashtiradi. Global miqyosda samarali raqobat qilish uchun kompaniyalarda yangi mahsulotlarni ishlab chiqishda yuqori natijalarga olib keluvchi imkoniyatlarni oshirish kerak. Korxonalar, tashkilotlarni boshqarishning zamonaviy amaliyoti rivojlanish mezonini tanlashda maksimal foyda olishga intilish emas, balki barqaror rentabellikni ta'minlash, yani bozorning oldindan aytib bo'lmaydigan o'zgarishiga qarshilik bildirish va bu o'zgarishlarga tayyor turishni anglatadi.


Dissertatsiyada muallif tomonidan respublikamiz tikuv-trikotaj korxonalarini faoliyatini boshqarishda, bozorni rivojlantirishga ta'sir etayotgan omillar tadqiq etilgan. Korxonalarda yangi mahsulot ustida ishlashdan avval unga iste'molchi talabini to'raligicha qanday o'stirish mumkinligi ustida ish olib borishi maqsadga muvofiq. Shu bilan birga raqobatdosh korxonalariga asosiy istiqboldagi talablar bu ilmiy-texnika muammosini hal qilishga qaratilishi lozim.

Birinchi guruh omillariga, eng yaxshi ko'rsatkichli korxonalarda eksport bilan bir qatorda ichki bozorning dinamik segmentlarida kuchli va bir vaqtning o'zida mavjud bo'lishi, ikkinchi guruhga birinchi marta eksport qiluvchilar va ularning xorijlik xaridorlar o'rtasidagi o'rganish munosabatlarini, uchinchi guruhga esa, yaxshi ishlovchi korxonalar yangi asbob-uskunalar sotib olish bilan birga, ularni ish amaliyotida tashkiliy o'zgarishlarni amalga oshirishga ko'proq e'tibor qaratishi omillarini kiritish maqsadga muvofiq.

Fikrimizcha, tikuv-trikotaj buyumlari bozorlarini rivojlantirish bir qator omillarga bog'liq. Dissertatsiya ishida tikuv-trikotaj buyumlari xalqaro bozorlaridagi raqobat strategiyalarining nazariy-uslubiy asoslariga turli yondashuvlarni umumlashtirish orqali global miqyosda samarali raqobat qilish uchun kompaniyalar tomonidan barqaror rentabellikni ta'minlovchi omillar majmuasi asoslangan(1-rasm).

Barqaror rentabellik – korxonaning mazkur bozorda mavjud eng yaxshi o'xshash obyektlarga nisbatan aniq ehtiyojni qondirish darajasini tavsiflovchi obyekt xususiyatini, uning raqobatbardoshligini ta'minlashning asosiy shartidir. Barqaror rentabellik korxonaning qilgan xarajatlariga nisbatan olingan foydaning foizi bilan

tavsiflanuvchi ko'rsatkich bo'lib, raqobatbardoshlikni belgilab beruvchi asosiy omil hisoblanadi.



1-rasm. Korxonaning tikuv-trikotaj buyumlari xalqaro bozorlaridagi barqaror rentabelligini ta'minlovchi asosiy omillar⁴


Tikuv-trikotaj mahsulotlari raqobatbardoshligi esa, uning boshqa yondosh mahsulotlardan farqi, shu mahsulotlardan ma'lum vaqt va aniq bozor sharoitlaridagi ustunligini ta'minlovchi mahsulotning sifat va qiymatlarining majmuasi bilan tavsiflanadi.

Dissertatsiya ishida tikuv-trikotaj mahsulotlarining raqobatbardoshlik darajasini baholash bo'yicha quyidagi algoritm tavsiya etilgan bo'lib, baholashning birinchi bosqichida raqobatbardoshlikning birlik ko'rsatkichlarini ajratib olish masalasini hal qilish kerak va bu iste'molchilarning asosiy iste'molchilar guruhi uchun ta'sirini aniqlash lozim (2-rasm).

Ikkinchi bosqichda esa butun bir assortimentlar qatoridan biror-bir bazis namunasini maxsus metodlar yordamida taqqoslashlar uchun ajralib chiqishini ko'rib chiqish zarur. Bunda bazis namunasi shartli bo'lishi va ishlab chiqarilayotgan hech bir mahsulotga muvofiq bo'lmagan ko'rsatkichlar yig'indisi tarzida tavsiflanishi mumkin. Faqat, shundan keyingina raqobatbardoshlik integrallik ko'rsatkichini hisoblash mumkin.

Dissertatsiyaning «**O'zbekiston tikuv-trikotaj korxonalarini raqobatchilik salohiyatining tahlili**» deb nomlangan ikkinchi bobida tikuv-trikotaj sanoati korxonalarini modernizatsiyalash, eksport ishlab chiqarishini shakllantirish imkoniyatlari hamda O'zbekiston tikuv-trikotaj korxonalarining kuchli va zaif jihatlari tahlil qilingan. Tikuv-trikotaj korxonalarining raqobatchilik salohiyati baholangan.

⁴Muallif ishlanmasi.



2-rasm. Tikuv-trikotaj mahsulotlarining raqobatbardoshlik darajasini baholash algoritmi⁵

Bugungi kunda ko'plab rivojlangan va jahon iqtisodiyotida yetakchi o'rin tutuvchi mamlakatlar tajribasi so'zsiz isbotlab bermoqdaki, raqobatdoshlikka erishish va dunyo bozorlariga chiqish, birinchi navbatda iqtisodiyotni izchil isloh etish, tarkibiy jihatdan o'zgartirish va diversifikatsiya qilishni chuqurlashtirish, yuqori texnologiyalarga asoslangan yangi korxonalar va ishlab chiqarish tarmoqlarining jadal rivojlanishini ta'minlash, faoliyat yuritayotgan quvvatlarni modernizatsiya qilish va texnik yangilash jarayonlarini tezlashtirish hisobidan amalga oshirilishi mumkin.

⁵ Muallif ishlanmasi.

Dissertatsiya ishida muallif tomonidan, tadqiqot obyekti sifatida qabul qilingan «BEST COLOR TEXTILE» MChJ korxonasi faoliyatining 2018-2022-yillardagi asosiy ko‘rsatkichlari dinamikasi tahlil qilingan hamda 2023-2025-yillar uchun «BEST COLOR TEXTILE» MChJ korxonasida trikotaj to‘quv ishlab chiqarishini modernizatsiyalash jarayoni asoslangan(1-jadval).

1-jadval

2023-2025-yillarda «BEST COLOR TEXTILE» MChJ korxonasida trikotaj to‘quv ishlab chiqarishini modernizatsiyalash jarayonining texnologik uskunalari tavsifi ⁶

Mashina nomi	Ishlab chiqaruvchi davlat	Mashinalar soni	Mashinaning nazariy ish unumi, kg	Mashinanig amaliy ish unumi, kg	Yillik ishlab chiqarish hajmi, tonna
«Mayer» trikotaj to‘quv mashinasi	Germaniya	54	23,1	15,9	5067

Tadqiqot obyekti sifatida qabul qilingan «BEST COLOR TEXTILE» MChJ trikotaj matosi ishlab chiqarish, hamda bo‘yash-pardoqlash ishlab chiqarishiga ixtisoslashgan. Korxonaga «Orizio» (Italiya), «San Young» (Koreya) trikotaj to‘quv mashinalari o‘rnatilgan. Korxonada yiliga 5000 tonna trikotaj matosi ishlab chiqarish, bo‘yash-pardoqlash ishlab chiqarishi 9000 tonna quvvatga ega bo‘lib, korxonada ishlab chiqarish quvvatidan foydalanish koeffitsiyenti 0,54 ga teng.

Fikrimizcha, to‘qimachilik korxonalarida oldida turgan asosiy vazifalardan biri yuqori qo‘shilgan qiymatga ega tayyor mahsulotlarni ishlab chiqarishdir. Bunda, har bir ishlab chiqarish jarayoniga o‘rnatilgan mashinalarning ishlab chiqarish quvvatlaridan oqilona, to‘liq foydalanish orqali ishlab chiqarish hajmini oshirish ichki imkoniyatlaridan foydalanishga erishish kerak.

Jarayonlarning ishlab chiqarish quvvatini tadqiq etganda, ularning orasidagi muvofiqlikni ta‘minlash, matoni bo‘yash va pardoqlash texnologik jarayonlarining raqobat ustunligini hisobga olgan holda, tikuvchilik sanoati uchun jahon andozalari talablariga muvofiq keluvchi sifatli sintetik, yarim jun tolalar, mahalliy kimyoviy moddalar, bo‘yoqlar va furniturani ishlab chiqaruvchi korxonalarni tashkil etish orqali yopiq zanjir yaratish zarur.

Fikrimizcha, korxonaning to‘liq quvvatda ishlashi uchun yopiq zanjirni yaratishda o‘rnatilishi kerak bo‘lgan mashinalar sonini aniqlashda trikotaj to‘quv mashinalarining texnik parametrlari, ishlab chiqarilishi rejalashtirilayotgan mahsulot hajmi, dastgohning nazariy va amaliy ish unumdorligi, ishchi yil davomiyligi, korxonada o‘rnatilgan ishlash rejimi ma‘lumotlariga asoslanib, o‘z hisob-kitob ishlarini amalga oshirgan hamda bo‘yash-pardoqlash ishlab chiqarishi quvvatidan to‘liq foydalanishga asoslangan tayyor trikotaj matosini ishlab chiqaruvchi yopiq zanjir yaratish orqali ishlab chiqarish hajmini 5067 tonnaga oshirish imkoniyati asoslangan.

⁶ Muallif ishlanmasi.

Dissertatsiya ishida tadqiqot obyekti sifatida qabul qilingan «BETLIS TEXTILE» MChJda tikuv-trikotaj ishlab chiqarishini modernizatsiyalash jarayoni texnologik uskunalari tavsiya etilgan hamda korxonada modernizatsiyalash ishlari amalga oshirilganda, bolalar trikotaji bilan bir qatorda, erkaklar trikotaj mahsulotlarini ham ishlab chiqarishni tashkil etish, korxonaning eksport salohiyati oshirish ichki imkoniyatlari mavjudligi asoslangan.

Shuningdek, tadqiqot obyektlaridan bo'lgan «FULL COTON» MChJ faoliyatini tavsiflovchi asosiy ko'rsatkichlar tahlil qilinib, korxonada o'z eksport salohiyatini oshirish ichki imkoniyatlariga ega ekanligi, mahsulot sifati shakllanishiga bir qator omillar, xususan, loyihalashtirish va konstruksiyalash ishlarining sifati, xomashyo sifati, texnika-texnologiya sifati, xodim mehnatining sifati, o'rash-joylash ishlarining sifati singari bir qator omillar ta'sir ko'rsatadi, deb xulosa qilingan. Muallifning fikricha, «FULL COTON» MChJ da loyihalash, konstruksiyalash ishlari sifatiga ko'proq e'tibor qaratilishi kerak, 2022-2023-yilda «FULL COTON» MChJda tikuv-trikotaj ishlab chiqarishini modernizatsiyalash jarayoni texnologik uskunalari asoslangan.

Muallif tomonidan respublikamiz tikuv-trikotaj korxonalarining kuchli va zaif jihatlari baholash maqsadida SWOT-tahlilni o'tkazish uchun tadqiqot obyekti sifatida qabul qilingan korxonalarni baholash ko'rsatkichlari asosida so'rovnoma jadvali ishlab chiqildi hamda to'qimachilik korxonalarini faoliyatiga eng ko'p ta'sir ko'rsatuvchi turli omillarni to'laroq hisobga olishga imkon beruvchi qulay uslubdan foydalanildi.

Omillarning ahamiyatlilik koeffitsiyenti quyidagi formula orqali aniqlandi:


$$K_{ij} = \frac{x_i}{x_j} = \frac{I_{nxi}}{I_{nxj}},$$

bu yerda: K_{ij} – ahamiyatlilik koeffitsiyenti;

x_i – ekspertlar tomonidan ko'rsatilgan parametrlarni tavsiflovchi omillar soni;


x_j – parametrlarni tavsiflovchi omillarning umumiy soni.

Ahamiyatlilik ko'rsatkichi qancha yuqori bo'lsa, mazkur parametr korxonada uchun shunchalik ko'proq ahamiyatga ega bo'ladi. Ekspertlar sifatida «O'zto'qimachilik sanoati» uyushmasi tarkibidagi korxonada rahbarlari jalb etildi. So'rovnoma natijalari bo'yicha tadqiqot obyekti sifatida qabul qilingan uchta trikotaj-tikuvchilik korxonasi, jumladan «BEST COLOR TEXTILE» MChJ, «BETLIS TEXTILE» MChJ va «FULL COTON» MChJning kuchli va zaif tomonlari aniqlandi. Muallif tomonidan tikuv-trikotaj korxonalarini resurslarini boshqarish samaradorligi tahlil qilingan hamda SWOT-tahlil asosida to'qimachilik korxonalarini faoliyatini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari baholangan. Baholash natijalariga asoslangan holda, «BEST COLOR TEXTILE» MChJ korxonasi o'z rivojlanishida yaxshi ishlab chiqarish bazasi va ishonchli moliyaviy holatga asoslanishi mumkin (3-rasm).



3-rasm. «BEST COLOR TEXTILE» MChJ korxonasi kuchli va zaif tomonlari⁷

«BETLIS TEXTILE» MChJ korxonasi esa ishlab chiqarishni samarali tashkil etishga va zamonaviy ishlab chiqarishga asoslanishi lozim (4-rasm).




4-rasm. «BETLIS TEXTILE» MChJ korxonasi kuchli va zaif tomonlari⁸

«FULL COTON» MChJ korxonasi esa mahsulot assortimenti va sifatini yaxshilash, yangi texnika va texnologiyani joriy etish yo'nalishida o'z rivojlanish strategiyasini amalga oshirishi maqsadga muvofiq, deb hulosasi qilingan (5-rasm).

⁷Muallif ishlanmasi.

⁸Tadqiqot va tahlil natijalari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.



5-rasm. «FULL COTON» MChJ korxonasi kuchli va zaif tomonlarini aniqlash⁹

Fikrimizcha, «BEST COLOR TEXTILE» MChJ korxonasi va «BETLIS TEXTILE» MChJ korxonasi ishlab chiqarishning rivojlanishiga to'sqinlik qilayotgan asosiy omil marketing ishlarining yaxshi yo'lga qo'yilmaganidir. Birinchi korxonaning zaif tomoni uning innovatsiyalarni joriy etishdagi sustligi bo'lsa, ikkinchi korxonaga uchun bozordagi holatning ishonchli emasligi hisoblanadi.

O'tkazilgan SWOT-tahlil natijalariga asoslanib, korxonalar salohiyatining raqobatbardoshligiga nisbatan xulosalar qilingan. Muallifning fikricha, ichki va tashqi bozor uchun sifatli va raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarish imkonini beruvchi import tavsifidagi butlovchi materiallar, to'qimachilik va yengil sanoat korxonalarining dastgohlari uchun ehtiyot qismlarga nisbatan belgilanuvchi bojxona to'lovlarining to'qimachilik mahsulotlari bozori konyunkturasiga qisqa muddatli moslashuvchanlik darajasini oshirish korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish imkonini beradi.

«BEST COLOR TEXTILE» MCHJ da mazkur omil hisobiga 2022-yilda 2018- yilga nisbatan sotilgan mahsulot qiymatini 39,4 foizga, 2022-yilda 2021-yilga nisbatan esa 20 foizga oshirishga erishilgan (2-jadval).

Korxonaga «Orizio» (Italiya), «San Young» (Koreya) trikotaj to'quv mashinalari o'rnatilgan. Dastgohlarni ta'mirlash uchun zarur ehtiyot qismlar, butlovchi materiallar import qilinadi. Ularni import qilishdagi bojxona to'lovlari, o'z navbatida, mahsulot tannarxida o'z aksini topadi. Bojxona to'lovlarining ko'tarilib ketishi hisobiga tannarx ortadi, bu esa korxonaga foydasining kamayishiga olib keladi. Shu boisdan, korxonada import tavsifidagi butlovchi materiallar, to'qimachilik va yengil sanoat korxonalarining dastgohlari uchun ehtiyot qismlarga nisbatan belgilanuvchi bojxona to'lovlarining to'qimachilik mahsulotlari bozori konyunkturasiga qisqa muddatli moslashuvchanlik darajasini oshirish korxonaga foydasini, uning raqobatbardoshligini oshirish omillari hisoblanadi.

⁹ Muallif ishlanmasi

2 -jadval

«BEST COLOR TEXTILE» MChJ korxonasida sotilgan mahsulot qiymati o'zgarishi dinamikasi¹⁰

№	Ko'rsatkichlar	2018-y.	2019-y.	2020-y.	2021-y.	2022-y.	2022-y. 2018-y.ga nisbatan,% da
1.	Trikotaj matosi ishlab chiqarish hajmi, mln.so'm	164095	170297	178391	160680	192800	117,5
2.	Butlovchi materiallar, dastgohlar uchun import qilingan ehtiyot qismlar, mln.so'm	1968	2455	3068,7	3682,5	3856	196,8
3.	Import qilingan butlovchi materiallar, ehtiyot qismlar uchun bojxona bojlari, mln.so'm	266,5	294,6	230,2	257,8	289,2	108,5
4.	Sotilgan mahsulot qiymati, mln.so'm	190809	200349	212370	221720	266064	139,4

Huddi shunday holat «BETLIS TEXTILE» MChJ korxonasida sotilgan mahsulot qiymati o'zgarishi dinamikasida ham kuzatilgan (3-jadval).

3-jadval

«BETLIS TEXTILE» MChJ korxonasida sotilgan mahsulot qiymati o'zgarishi dinamikasi¹¹

№	Ko'rsatkichlar	2018-y.	2019-y.	2020-y.	2021-y.	2022-y.	2022-y. 2018-y.ga nisbatan,% da
1.	Trikotaj matosi ishlab chiqarish hajmi, mln.so'm	115027	127679	139171	151696	169900	147,7
2.	Import qilingan ehtiyot qismlar, mln.so'm	1903,6	2132,1	2452	2830,5	3398	178,5
3.	Import qilingan ehtiyot qismlar uchun bojxona bojlari, mln.so'm	201,8	159,9	183,9	212,4	254,8	126,3
4.	Sotilgan mahsulot qiymati, mln.so'm	155759	163300	171465	174450	195385	125,4


Korxonada tikuvchilik korxonasi hisoblanib, tikuvchilik buyumlarini ishlab chiqarishda ishlatiladigan barcha aksessuarlar va butlovchi materiallar import qilinadi. Ularni import qilishda belgilanuvchi bojxona to'lovlarining to'qimachilik mahsulotlari bozori konyunkturasi qisqa muddatli moslashuvchanlik darajasini oshirish 2022-yilda 2018-yilga nisbatan korxonada sotilgan mahsulot qiymatining 25,4 foizga, 2022-yilda 2021-yilga nisbatan esa 12 foizga ortishiga erishilgan.

¹⁰Korxonada ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

¹¹Muallif ishlanmasi.

Dissertatsiyada tikuv-trikotaj korxonalari raqobatchilik salohiyatini baholash maqsadida onlayn shaklda so‘rovnoma o‘tkazilib, ekonometrik tahlil amalga oshirilgan. Tadqiqotda birlamchi ma’lumotlar, 280 respondentdan 20 ta savol bo‘yicha onlayn shaklda so‘rovnoma asosida to‘plandi.

